O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO‘JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
ANDIJON VILOYATI
BOSHQARMASI

Andijon viloyati 170100, Andijon Shahri, A.Navoiy shox ko'chasi 30-uy., Tel/Faks: 71-203-11-49, E-mail: ekspert-2312@mail.ru., new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Nu’manov Azizbek Abduvali O‘g‘li

2026 - yil 1 - maydagi 279437 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: Savdo va maishiy xizmat binosini buzib o’rniga 12 qavatli yerto’la 1-2 qavati savdo va maishiy xizmat ko’rsatish shaxobchalari 3-4-5-6-7-8-9-10-11-12 qavatlari turar-joy bino-inshootlari qurilishi.
Buyurtmachi: ORIENT NEW HOUSES MCHJ
Bosh loyihachi: "DREAM REFLECTION" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai: Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi: “Imorat qurilish ta’mirlash” X/K
Qurilish turi: Yangi qurilish
Murojaat raqami: 117624

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Asaka tumani Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bo`limining 16.01.2026-yildagi №244674705 -sonli ruxsatnomasi.

1.2. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasining 17.01.2026-yildagi №1703-1703224-252718 -sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.

1.3. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan hamda bosh pudratchi bilan kelishilgan 30.03.2026-yildagi loyixalashtirish topshirig'i.

1.4. Buyurtmachi hamda bosh loyiha tashkiloti o`rtasidagi 25.01.2026-yilda tuzilgan №2026/04-sonli loyiha-tadqiqot ishlari uchun shartnoma.

1.5. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 14.03.2026-yildagi №268943648 -sonli xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Loyixaning tarkibiy qismlarining ro'yxatiga muvofiq ishchi loyixa ikkinchi bosqichida to'liq loyixa xujjatlari.

2.2. Loyixa tarkibidagi umumiy tushuntirish yozuvi.

2.3. Muxandislik geologik qidiruv ishlari “GEO VALLEY GOLD” MChJ tomonidan bajarilgan 8.04.2026-yildagi xulosa.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

3.1. Qurilish maydoni tafsilotlari:

Me’yoriy qor yuki - 0.50 kg/m2;

Me’yoriy shamol yuk - 0.38 kg/m2;
Yer osti suvlari yer yuzasidan - 12,0 metrdan ortiq chuqurlikda yotishi mumkin;
Tuproq toifasi – II;
Hududning zilzilabardoshlik ko‘rsatkichi - 8 ball.
Binoning seysmikligi - 8 ball.

3.2. Bosh reja:

“Savdo va maishiy xizmat binosini buzib o’rniga 12 qavatli yerto’la 1-2 qavati savdo va maishiy xizmat ko’rsatish shaxobchalari 3-4-5-6-7-8-9-10-11-12 qavatlari turar-joy bino-inshootlari qurilishi” bino inshootlari qurilishi Andijon viloyati, Asaka tumani Baraka MFY hududida joylashgan. Qurilish maydoni uchun Asaka tumani Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi bo`limining 16.01.2026-yildagi №244674705-sonli ruxsatnomasiga asosan yer uchastkasi ajratildi. Loyihalashtirish uchun tanlangan yer maydoni quyidagicha chegaralangan: Shimol tomondan — avtomobil yo‘li bilan chegaralangan; Sharq tomondan — qo‘shni hudud bilan chegaralangan; Janub tomondan — shahrixonsoy bilan chegaralangan; G‘arb tomondan — loyihaviy ko‘p qavatli turar-joy binolari bilan chegaralangan. Bosh rejada loyihaviy 12 qavatli, yerto’la 1-2 qavati savdo va maishiy xizmat ko’rsatish shaxobchalari 3-4-5-6-7-8-9-10-11-12 qavatlari turar-joy binolari, yong’inga qarshi jihozlar saqlash qutisi, 1490 m2 maydonga ega bolalar maydonchasi,chiqindi yig’ish qutilari va mashina-o’rniga ega ochiq avtoturargoh re’jalashtirilgan.

Shuningdek buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalashtirish topshirig’iga asosan keyingi bosqichda tashqi muhandislik tarmoqlari re’jalashtirilgan.

Hududning texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlar:

Hududning umumiy maydoni – 4000.0 m2/100%;
Hududning umumiy qurilish maydoni – 1495.0 m2/37.4%;
Yo’l va yo’laklar maydoni – 1938 m2/48.5%;
Ko’kalamzorlashtirish maydoni – 567.0 m2/14.1%.

3.3. Me'moriy va konstruktiv yechimlari:

Loyihalanayotgan “Ko’p qavatli uy-joylar majmuasi” binolari –1 dona blok-A, 1 dona blok-B va 1 dona blok-V dan iborat bo’lib, ja’mi 186 dona xonadon joylashgan.

Loyihaviy “A blok” binosi – o’n ikki qavatli, yerto’la qavatiga ega bo’lib, to’g’ri to’rtburchak shaklida, tarx bo’yicha o’qlarning umumiy o`lchami 27x18.1m. Bino yerto’la qavati poldan shiftgacha bo’lgan balandligi 3.60 m, yuqori qavatlarning poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 3.00 m ni tashkil etadi.

Yerosti yerto’la qavatida savdo zali, xoll, zina, lift, suv va elektr jihozlari xonasi sifatida foydalanish uchun re’jalashtirilgan bo’lib, xoll, bir dona zina, ikki dona lift, bir dona suv jihozlari xonasi va bir dona elektr jihozlari xonasi joylashgan.

Bino 1-2-qavati savdo zali sifatida foydalanish uchun re’jalashtirilgan bo’lib, xoll, 2 dona zina va 2 dona lift joylashgan.

Bino 3-12-qavatlarida 30 dona 1 xonali, 30 dona 2 xonali xonadon joylashgan bo’lib, ja’mi mazkur 3-12-qavatlarda 60 dona xonadon joylashgan. 3-12-qavatlarda joylashgan barcha xonadonlardagi mehmonxona va oshxona xonalaridan balkon re’jalashtirilgan.

1 xonali xonadonda holl, oshxona va mexmonxona studiya uslubida, yotoqxona, xojatxona, balkon mavjud.
2 xonali xonadonda holl, mehmonxona va oshxona studiya uslubida, yotoqxona, bolalar xonasi, xojatxona, balkon mavjud. Turar joy uyining barcha qavatlarida joylashgan yotoqxona, bolalar yotoqxonasi, mehmonxona va oshxona hamda zinapoya xonalarida tabiiy shamollatish va yoritish ko'zda tutilgan.

Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari:
Qurilish maydoni – 503.50 m2;
Umumiy maydoni – 5193.84 m2;
Yashash maydoni – 2848.3 m2;
Qurilish hajmi – 19147.0 m3.

Loyihaviy "B blok" binosi – o'n ikki qavatli, yerto'la qavatiga ega bo'lib, to'g'ri to'rtburchak shaklida, tarx bo'yicha o'qlarning umumiy o`lchami 24x15.1m. Bino yerto'la qavati poldan shiftgacha bo'lgan balandligi 3.60 m, yuqori qavatlarning poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 3.00 m ni tashkil etadi.
Yerosti yerto'la qavatida savdo zali, xoll, zina, lift, suv va elektr jihozlari xonasi sifatida foydalanish uchun re'jalashtirilgan bo'lib, xoll, bir dona zina, ikki dona lift, bir dona suv jihozlari xonasi va bir dona elektr jihozlari xonasi joylashgan.
Bino 1-2-qavati savdo zali sifatida foydalanish uchun re'jalashtirilgan bo'lib, xoll, 2 dona zina va 2 dona lift joylashgan.
Bino 3-12-qavatlarida 20 dona 1 xonali, 30 dona 2 xonali, 10 dona 3 xonali xonadon joylashgan bo'lib, ja'mi mazkur 3-12-qavatlarda 60 dona xonadon joylashgan. 3-12-qavatlarda joylashgan barcha xonadonlardagi mehmonxona va oshxona xonalaridan balkon re'jalashtirilgan.
1 xonali xonadonda holl, oshxona va mexmonxona studiya uslubida, yotoqxona, xojatxona, balkon mavjud.
2 xonali xonadonda holl, mehmonxona va oshxona studiya uslubida, yotoqxona,
bolalar xonasi, xojatxona, balkon mavjud.
3 xonali xonadonda holl, mehmonxona va oshxona studiya uslubida, yotoqxona, 2 ta bolalar xonasi, xojatxona, balkon mavjud.
Turar joy uyining barcha qavatlarida joylashgan yotoqxona, bolalar yotoqxonasi, mehmonxona va oshxona hamda zinapoya xonalarida tabiiy shamollatish va yoritish ko'zda tutilgan.
Texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari:
Qurilish maydoni – 488.4 m2;
Umumiy maydoni – 5319.09 m2;
Yashash maydoni – 3243.5 m2;
Qurilish hajmi – 19240.66 m3.

Loyihaviy "V blok" binosi – o'n ikki qavatli, yerto'la qavatiga ega bo'lib, to'g'ri to'rtburchak shaklida, tarx bo'yicha o'qlarning umumiy o`lchami 24x15.1m. Bino yerto'la qavati poldan shiftgacha bo'lgan balandligi 3.60 m, yuqori qavatlarning poldan shiftgacha bo`lgan balandligi 3.00 m ni tashkil etadi.

Yerosti yerto’la qavatida savdo zali, xoll, zina, lift, suv va elektr jihozlari xonasi sifatida foydalanish uchun re’jalashtirilgan bo’lib, xoll, bir dona zina, ikki dona lift, bir dona suv jihozlari xonasi va bir dona elektr jihozlari xonasi joylashgan.
Bino 1-qavati savdo zali sifatida foydalanish uchun re’jalashtirilgan bo’lib, xoll, 2 dona zina va 2 dona lift joylashgan.
Bino 2-12-qavatlarida 30 dona 1 xonali, 30 dona 2 xonali xonadon joylashgan bo’lib, ja’mi mazkur 2-12-qavatlarda 66 dona xonadon joylashgan. 2-12-qavatlarda joylashgan barcha xonadonlardagi mehmonxona va oshxona xonalaridan balkon re’jalashtirilgan.
1 xonali xonadonda holl, oshxona va mexmonxona studiya uslubida, yotoqxona, xojatxona, balkon mavjud.
2 xonali xonadonda holl, mehmonxona va oshxona studiya uslubida, yotoqxona, bolalar xonasi, xojatxona, balkon mavjud. Turar joy uyining barcha qavatlarida joylashgan yotoqxona, bolalar yotoqxonasi, mehmonxona va oshxona hamda zinapoya xonalarida tabiiy shamollatish va yoritish ko’zda tutilgan.

Texnik-iqtisodiy ko’rsatkichlari:
Qurilish maydoni – 503.50 m2;
Umumiy maydoni – 5193.84 m2;
Yashash maydoni – 2848.3 m2;
Qurilish hajmi – 19147.0 m3.

Ichki pardoz ishlari – buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga muvofiq “коробка” yarim tayyor xolatda topshiriladi
Tashqi pardoz ishlari - buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig`iga muvofiq zamonaviy qurilish materiallaridan foydalaniladi.
Binoning konstruktiv yechimi QMQ 2.01.03-19 “Zilzilaviy hududlarda qurilish” ning 3.1-jadvali bo`yicha loyihalangan.
Tashqi pardozlash ishlari - binoning fasadi tashqi tomonidan bazalt tolali PPJ plitalari bilan qoplanib va tashqi ko’rinishini sement qorishmali «travertin» suvoq qilish, poypesh «keramogranit» plitka bilan pardozlash ko’zda tutilgan.

Bino quyidagi konstruktiv elementlardan iborat: Poydevor tagiga beton qorishma - yaxlit quyma beton sinfi B7.5, h=l00mm li. Poydevor - yahlit (сплошной) quyma temirbetondan, beton sinfi B25. h=l200mm Poydevor devorlari - quyma temirbetondan, beton sinfi B25, devorlar qalinligi 300 mm. Orayopmalar va tomyopma - quyma temirbetondan, beton sinfi B25, qalinligi noturar qavatlar 200 mm va turar joy qavatlari 180 mm. Devor va pardadevor - gazablok(avtoklav) qalinligi 300 mm, va 250 mm, pardadevorlar(перегородки) gazoblokdan, 120 mm. Devorlar va parda devorlar metal ustunlar va metal sarbasta bilan kuchaytiriladi. Tashqi devorlar (to’ldiruvchi) - gazo blokdan iborat va har 2 qatorda bo’ylamasiga SG setka to'shaladi. Gazoblok (avtoklav) zichligi 600kg/m3. Devorlari – quyma temirbetondan, beton sinfi B25, devorlar qalinligi 300mm. Zinapoyalar - quyma temirbetondan, beton sinfi B25. Quyma temirbeton bikrlik yadrosi (lift shaxtasi) - quyma temirbetondan, beton sinfi B25 qalinligi 300 mm. Tom – metal profil va shvellerlardan tom yopma profnastil. Tom yompasining issiqlik himoyasi -

mineralvatadan 150 mm. Tomdan suv tushirish quvurlari - (ichki suv quvuri) ruxlangan po’latdan qilinadi, po’lat materiali qalinligi 0.51 mm. Quvurlar dumaloq shaklli, 200 mm bo’lib tik, vertikal to'g'ri chiziqli ko'rinishda bo'lishi kerak. Otmostka - shag'al tushamali quyma beton quyiladi beton sinfi B7.5, qalinligi 100 mm

Shu bilan birga, ishchi loyiha-smeta hujjatlarida muhandislik tarmoqlari va nogironligi bo`lgan shaxslar uchun maxsus ishlarni bajarish ko'zda tutilgan.

Ishchi loyihada - *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 9-sentabrdagi PF-220-son Farmoni talablari bo`yicha:*

- Issiq suv ta’minoti manbai xonalardagi elektr suv isitkichlardan va quyoshli issiq suv kollektorlaridan amalga oshiriladi.
- Energiya samaradorlikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutilgan va ob’ekt energiya resurslarini zamonaviy “aqlli” o‘lchash moslamalari bilan jihozlanishi bo‘yicha talablar ko‘zda tutilgan.
- Binoda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ya`ni quyosh panellari o`rnatish ko‘zda tutilgan.
- Binoda issiqlikni saqlash uchun binoning tashqi fasad qismi 80 qalinlikda mineral vata(bazalt) plita qoplash ko`zda tutilgan;
- Tom issiqlik qatlami – mineral vata(bazalt) plitadan, 150 mm qalinlikda;
- Pol izolyatsiyasi – ekstruziyalangan penopolistiroldan, 50 mm qalinlikda issiqlik himoya qatlami yotqiziladi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish ob’yektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266 sonli qarori talablari bo`yicha:

- nogironlar uchun to`xtash joyi avtoturargox tashkil qilish va maxsus belgilar o`rnatish;
- hududda ogohlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplama yotqizish;
- binoning kirish qismida me`yoriy qiyalikka ega bo`lgan pandus tutqichlari bilan joylashgan bo’lib, pandus tutqichlari boshlanishida chaqiruv tugmasi, zina pog’onalarida sirpanishga qarshi alyumin profil va binoga kirish qismida mnemonik diagramma re’jalashtirildi;
- kirish eshiklarida kontrast stiker;
- ko’zi ojizlar uchun ovozli ma’lumot beruvchi uskuna;
- devordagi Brayl yozuvidagi axborot taxtasi;
- nogironlar aravachasi uchun evakuatsiya sxemasi;
- nogironlar uchun taktil belgilar;
- tutqichlar boshlanishida taktil stiker;
- binoga kirish eshigi oldida mnemonik diagramma;
- binodagi eshiklar qirg`oqlariga kontrast lenta yopishtirish, o`zi yopiluvchi moslama va eshiklarni ostonasiz o`rnatish;
- bino yo’laklarida ogohlantiruvchi va yo`naltiruvchi taktil qoplama yotqizish;
- birinchi qavatga chiqishda nogironligi bo`lgan shaxslar uchun ko’tarish moslamasi va maxsus belgilar o`rnatish re’jalashtirildi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Obyektni muhandislik kommunikatsiyalari bilan ta'minlash Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasining 17.01.2026-yildagi №1703-1703224-252718 -sonli Arxitektura-rejalashtirish topshirig'iga muvofiq hal qilinadi:

- Elektr ta'minoti - “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filiali tomonidan 31.03.2026 yil berilgan №03405194939-sonli texnik shart asosida amalga oshiriladi;
- Suv ta'minoti - “Andijon suvta`minoti” AJ tomonidan 19.03.2026-yildagi №15 texnik shartiga muvofiq xal qilinadi.

Issiqlik tizimi va shamollatish tizimi:

A,B,V bloklar binolarini isitish xar bir xonadonda joylashgan 2 konturli elektrqozonlardan amalga oshiriladi. Isitish sistemasi ikki quvurli gorizontal qabul qilingan. Isitish uskunalari sifatida alyumin radiatorlar qabul qilingan. Shamollatish tabiiy va mexanik yo‘l bilan bajariladi. Toza havo xonalarga deraza, eshiklar orqali amalga oshiriladi.

Ichimlik suvi va oqova suvi tizimi:

A,B,V bloklar binolariga xo‘jalik-ichimlik, oqava suvi, issiq suv ta’minoti va yong‘inga qarshi tarmoqlari loyihalangan bo‘lib, tarmoqlar turli xil diametrdagi polipropilen, plastmassa quvurlardan tashkil topgan. Issiq suv ta’minoti manbai xonalardagi 2 konturli qozonlardan va quyoshli issiq suv kollektorlaridan amalga oshiriladi. Oqova suv tarmog‘i polietilen quvurlardan loyixalangan.

Tarmoq kuchlanishi:

Elektr ta'minoti loyihasi 0,4 kV, ASKUE , shuningdek, hududni yoritish loyiha topshirig'i asosida va PUE-2011, KMK 2.04.17-19 va KMK 3.05.06-97 ga muvofiq amalga oshirildi.
Iste'molchi ob'ektini ulash uchun III -elektr ta'minoti toifasi bilan tarmoqqa ulanadi.
Ushbu loyiha quyidagilarni nazarda tutadi:
1. Kuchlanish tarmog'i ~ 380 / 220 V
2. Loyihada uyning barcha loyihaviy binolari elektr ta'minoti loyihaviy TP dan ta'minlanadi.
3. Kabelning kesimi uzoq muddatli ruhsat etilgan oqim yuki va kuchlanishning pasayishi va bir fazali qisqa tutashuvdagi oqimlarning uzilishi hisobiga asoslanib olinadi. Kabellarning markasi kesimi uzunligiga qarab tanlangan.
4. Ko'p qavatli uylarning tashqi hududi yoritilishi balandligi h-3.5m bo'lgan quyosh panelli Led projektorli orqali amalga oshiriladi.
5. Tashqi va ichki kirish tarmoqlari va hududni yoritish uchun kabellar tuproqning mumkin bo'lgan siljishlarini qoplash uchun etarli bo'lgan chegara bilan, yer tekislashdan 0,7 m chuqurlikda,xandaqqa yotqizilishi kerak.
6. Loyihada trassaning butun chizig‘i bo‘ylab kabellarni mexanik shikastlardan himoya qilish,g‘isht yotqizish ko‘zda tutilgan.10 kV, 0,4 kV elektr ta’minoti tarmog‘i va hududni yoritish obodonlashtirish ishlari boshlanishidan avval yakunlanishi kerak. Binolarga elektr kabellarini kiritishda va mavjud muhandislik kommunikatsiyalari bilan kesishgan joylarda kabellarni Ø100 mm.
Sahifa 1/2 azbestsement quvurlari yotqizilishi kerak.
Sahifa 1/2
Umumiy hisoblangan quvvat -Ph =1171,02 kVt
Umumiy hisoblangan tok -Ih =1951,7 A.

Energiya tejamkorlik:

Binolar tom qismiga umuniy quvvati 20 kwt bo’lgan 3-dona quyosh panellari jamlanmasi o’rnatish ko’zda tutilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 14.03.2026-yildagi №268943648 -sonli xulosasi.
5.2. Davlat ekologik ekspertizasi markazining Andijon viloyati filiali tomonidan 2026-yil 3-fevral kuni berilgan №01-02/03-7421-sonli davlat ekologik ekspertiza xulosasi.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **55 430 071 474** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **3 525 165 326** so'mga kamaytirilib,
51 904 906 148 so‘mni tashkil etadi. Xususan:
Qurilish-montaj ishlari: **43 594 136 109** so'm
Asbob-uskunalar: **2 749 530 094** so'm
QQS: **5 561 239 944** so'm
6.1. Loyiha-smeta hujjatlari ekspertizaga buyurtmachining e’tirozlarisiz taqdim qilindi.
6.2. Ishchi loyixaga asosan qurilish montaj ishlarining yakuniy xarajatlari buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng, xaqiqiy(ijro xujjatlari) nazorat natijalari asosida aniqlanadi.
6.3. Ushbu ekspertiza xulosasida pudratchining boshqa harajatlari, obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM Andijon viloyati hududiy boshqarmasi majburiyatni o’z zimmasiga olmaydi. Vaholanki, Andijon viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo`jaligi Bosh boshqarmasi Arxitektura va shaxarsozlik kengashi ishchi organining 14.03.2026-yildagi №268943648 -sonli xulosasida obyektning hududda joylashgan o`rni va oraliq masofasi bo`yicha kelishilgan.
6.4. Ekspert mutahassislar tomonidan ko`rsatilgan bandlar buyurtmachi va loyiha tashkiloti tomonidan to`liq bajarilmagan taqdirda ushbu ekspertiza xulosasi o`z kuchini yo`qotgan deb xisloblanadi.
6.5. Buyurtmachi loyixaviy xujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar, shu jumladan, O'zbekiston Nogironlar jamiyati Andijon viloyat bo'limi bilan kelishish lozim.
6.6. O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining 2019-yil 19-avgustdagi 396-buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 9-sentabrda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3180) bilan tasdiqlangan “Loyixa-tadqiqod ishlarining qiymatini aniqlash tartibi to'g'risidagi” Nizomning 4-bandiga asosan loyixa tashkiloti tomonidan qurilish ustidan mualliflik nazoratini o'tkazishda, loyixalarni ishlanma boshlanishidan amalga tadbiq etilishining oxirigacha olib boriladigan texnikaviy kuzatuvini amalga oshirishda ishtirok etadi.
6.7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi 579-sonli qarori 1-ilova, III-bob, 29-bandiga asosan ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning xaqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi va loyiha tashkiloti javobgardir.
6.8. Buyurtmachi loyiha xujjatlarini tasdiqlashdan oldin, ob’ekt loyixa-smeta xujjatlarini qisqa muddatlarda ko‘rib chiqib, yig‘ma ekspertiza xulosalari taqdim etilishi talab etilganligini inobatga olib, normativ talablarga mos kelmagan loyixa yechimlarini ShNQ talablariga moslashtirish yoki ShNQ ning o‘sha bandiga tegishli o‘zgarishlar kiritish sharti

bilan tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

6.9. Nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda keksalar uchun qurilish obyektlari O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.07.2024-yildagi PQ-266 sonli qarori bilan bir vaqtda ShNQ 2.01.02-04, ShNQ 2.04.09-21, ShNQ 2.07.01-23, ShNQ 2.08.01-24, ShNQ 2.08.02-23, ShNQ 2.08.04-24, ShNQ 2.07.02-24 hamda ShNQ 2.08.07-22 talablarini hisobga olgan holda, loyihalashtirish topshirig‘iga asosan talablarga to`liq amal qilinsin.

6.10. Taqdim etilgan umumiy miqdori buyurtmachining boshqa harajatlarisiz va 12% QQS bilan 55 430 071 474 so'mni tashkil qilgan. Ekspertiza ko'rigidan so`ng 3 525 165 326 so'm qurilish mashina-mehanizmlari va ba’zi ashyolar qiymatini sozlash xisobidan kamaydi.

7. Xulosalar.

7.1. Ishchi loyiha bo`yicha “Savdo va maishiy xizmat binosini buzib o’rniga 12 qavatli yerto’la 1-2 qavati savdo va maishiy xizmat ko’rsatish shaxobchalari 3-4-5-6-7-8-9-10-11-12 qavatlari turar-joy bino-inshootlari qurilishi”, taqdim etilgan quyidagi texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tasdiqlash uchun tavsiya qilinadi:

Me'yoriy mehnat sarfi	- 266 883,826 odam/soat;
Joriy narxdagi tavsiyaviy (boshlang'ich) miqdori 12% QQS bilan (Buyurtmachining boshqa harajatlarisiz)	- 51 904 906 148 so'm.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi 261-sonli qarori va ShNQ 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o`tkazish uchun ob'ektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsiya etilgan ta'mirlash va qurilish ishlari narxi boshlang`ich xisoblanib, asosiy qarorni buyurtmachi va bosh pudrat korhonasi tomonidan shartnomaviy munosabatlar orqali amalga oshiriladi.

7.3. ShNQ 1.03.06-13da “Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaxarsozlik xujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyixalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo`yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi”.

7.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17-sentabr 2021-yildagi №579-sonli qarorining 5-bob, 36-bandida shaharsozlik xujjatlari bo’yicha ekspert tashkilotlar tomonidan berilgan ekspertiza xulosasining amal qilish muddati 2 yil etib belgilangan!

Ishtirokchi ekspertlar: Abdurashidov Miryusup Kobulovich, Umarov Ravshan Maxamadjonovich, Nazarkasimova Feruza Muxamadaliyevna, Nizomov Raximjon O‘ktam O‘g‘li, Axmedov Rustambek Xamidovich, Soliyev Joxongir Maripjon O‘g‘li

Bosh ekspert **ASQAROV OTABEK FAZLIDINOVICH**